



O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TABAQALASHUVNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ULARNI MONITORING QILISHNING INNOVATSION IMKONIYATLARI

Muallif: Xakimov Ziyodulla Axmadovich¹

Affiliatsiya: Xalqaro Nordik universiteti Sanoatni boshqarish va raqamli texnologiyalar kafedrası professori, i.f.d¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17355999>

ANNOTATSIYA

Tadqiqotda O‘zbekistonda ijtimoiy tabaqalashuvning zamonaviy shakllari va raqamli transformatsiya jarayonlarining tengsizlikka ta’siri tahlil qilindi. Empirik tahlillar Jini koeffitsiyenti, Lorenz egri va DAD dasturi asosida olib borilib, ijtimoiy va raqamli tafovutlarning o‘zaro bog‘liqligi aniqlangan. Natijalar raqamli infratuzilma, ma’lumotga kirish va imkoniyatlar tengligi o‘rtasida muvozanat zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot ijtimoiy tenglikni ta’minlash uchun innovatsion monitoring tizimini ishlab chiqish bo‘yicha amaliy takliflarni ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tabaqalashuv, raqamli transformatsiya, tengsizlik, monitoring tizimi, Jini koeffitsiyenti, raqamli infratuzilma, data inequality.

KIRISH

Jamiyatning barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan undagi ijtimoiy tuzilmaning muvozanatiga bog‘liq. Har bir davlatda iqtisodiy o‘shish bilan bir qatorda, ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi farqlarni yumshatish va teng imkoniyatlarni ta’minlash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda iqtisodiyotning raqamli yo‘nalishga o‘tishi, axborot texnologiyalarining hayotning barcha sohalariga kirib kelishi ijtimoiy jarayonlarning xarakterini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlari jamiyatda yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, mavjud ijtimoiy tafovutlarni ham o‘zgacha shaklda namoyon etmoqda. Shu sababli, ijtimoiy tabaqalashuv va raqamli tengsizlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan alohida ahamiyatga ega.

Tadqiqotning markazida inson salohiyati, texnologik kirish imkoniyatlari va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi muvozanat masalasi turadi. Raqamli infratuzilmaning kengayishi, axborot oqimlarining tezlashuvi va yangi iqtisodiy faoliyat turlari paydo bo‘lishi insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy masofani qayta shakllantirmoqda. Bu jarayonda ayrim ijtimoiy guruhlar texnologik o‘zgarishlardan faol foyda olayotgan bo‘lsa, boshqalar esa raqamli imkoniyatlardan chetda qolmoqda. Shu sababli, tadqiqotda asosiy e’tibor raqamli transformatsiya natijasida yuzaga kelayotgan yangi turdagi tengsizliklarni aniqlash va ularni muntazam monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratiladi.

Tadqiqotning maqsadi — O‘zbekistonda ijtimoiy tabaqalashuvning zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilish, raqamli transformatsiya jarayonlarining ijtimoiy tengsizlikka ta’sirini baholash hamda bu jarayonlarni doimiy kuzatib boruvchi

innovatsion monitoring tizimini ishlab chiqishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

1. Ijtimoiy tabaqalashuvning nazariy asoslarini tahlil qilish va ularning O'zbekiston sharoitidagi ko'rinishlarini aniqlash.
2. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi jarayonida tengsizlikning yangi shakllarini aniqlash va ularning ijtimoiy oqibatlarini baholash.
3. Empirik ma'lumotlar asosida Jini koeffitsiyenti, Lorenz egri va DAD dasturi yordamida ijtimoiy tafovutlarni miqdoriy o'lchash.
4. Ijtimoiy tengsizlikni muntazam kuzatish uchun raqamli indikatorlarga asoslangan monitoring tizimini ishlab chiqish.

Mazkur mavzu bo'yicha xalqaro miqyosda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Xitoydagi ijtimoiy harakatchanlik bo'yicha Xie va hamkorlari olib borgan tahlillar bozor islohotlari davrida ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi o'tish mexanizmlarining murakkablashganini ko'rsatgan. Fasang va Aisenbrey o'z ishlarida gender va irqiy tafovutlarning iqtisodiy resurslar bilan kesishgan shaklda ijtimoiy iyerarxiyani mustahkamlashini asoslab bergan[4]. Cinnamon tomonidan ilgari surilgan "data inequality" konsepsiyasi esa raqamli davrda ma'lumotlarga kirishdagi nomutanosiblikning ijtimoiy adolatga bevosita ta'sirini ochib bergan. Ushbu ilmiy yondashuvlar asosida tadqiqot O'zbekiston sharoitida ijtimoiy tabaqalashuv va raqamli tafovutlarning o'zaro ta'sir mexanizmini aniqlashga yo'naltirilgan.

Mazkur mavzuni o'rganish natijalari mamlakatda ijtimoiy siyosatning samaradorligini oshirish, teng imkoniyatlar siyosatini takomillashtirish va raqamli jamiyat qurish jarayonida inklyuziv yondashuvni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqot ijtimoiy adolat va raqamli barqarorlikni ta'minlash uchun ilmiy asoslangan monitoring tizimini shakllantirishga amaliy hissa qo'shadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi tizimli va kompleks tahlilga asoslanadi. Asosiy maqsad — O'zbekistonda ijtimoiy tabaqalashuvning zamonaviy tendensiyalarini aniqlash, raqamli transformatsiya jarayonlarining ijtimoiy tengsizlikka ta'sirini baholash va monitoring tizimini takomillashtirishdan iborat. Tadqiqot uch bosqichda olib borildi: nazariy tahlil, empirik ma'lumotlarni qayta ishlash va modellashtirish. Teoretik baza sifatida ijtimoiy tabaqalashuv va harakatchanlik nazariyalari (P. Sorokin, M. Veber, E. Giddens), raqamli tengsizlik modeli (Rogerson) hamda "data inequality" konsepsiyasi (Cinnamon)dan foydalanildi. Empirik ma'lumotlar 2010–2024-yillar oralig'idagi O'zbekiston bo'yicha rasmiy statistik ko'rsatkichlarga asoslandi. Tahlilda Jini koeffitsiyenti, Lorenz egri chizig'i, DAD dasturi va median indekslardan foydalanildi. Miqdoriy va sifatli tahlil usullari uyg'un qo'llanilib, gender, hududiy va raqamli tafovutlar kontekstual baholandi.

Raqamli infratuzilma

Ma'lumotga kirish

Ijtimoiy imkoniyatlar

Barqarorlik

1-rasm. Ijtimoiy tengsizlikni monitoring qilishning oqim modeli.¹


Ushbu model ijtimoiy tengsizlikni baholashda iqtisodiy, raqamli va sog'liq indikatorlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aks ettiradi.

¹ Muallif ishlanmasi

Mazkur metodologiya tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlab, ijtimoiy tengsizlikni raqamli transformatsiya sharoitida o'lchash uchun konseptual asos yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ijtimoiy tuzilma iqtisodiy islohotlar, texnologik o'zgarishlar va madaniy jarayonlarning uyg'unlashgan bosqichida shakllanmoqda. Ijtimoiy tabaqalashuv jarayonlari endilikda yanada murakkab, ammo tizimli tus olgan bo'lib, bu jarayon nafaqat iqtisodiy resurslar, balki bilim, innovatsion salohiyat va raqamli imkoniyatlardan foydalanish darajasi bilan ham belgilanadi. Bugungi globalashuv sharoitida ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi tafovutlar mavjud bo'lishiga qaramay, davlatning ijtimoiy siyosati va ta'lim sohasidagi islohotlar ularni muvozanatlashtirishga qaratilmoqda. Shu bois, daromadlar farqi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali, balki ijtimoiy ishtirok, imkoniyat va madaniy kapital o'rtasidagi muvozanat orqali ham tahlil etilishi zarur.



2-rasm. O'zbekiston bo'yicha Lorenz egri (2010–2024-yillar o'rtacha qiymat)²

Iqtisodiy tizimlar transformatsiyasi ijtimoiy tabaqalashuv shaklini ham yangicha ko'rinishga keltirmoqda. Xitoyda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichlarida ijtimoiy harakatchanlik yuqori bo'lgan, biroq bozor mexanizmlarining kuchayishi bilan u sekinlashgan [1]. O'zbekiston sharoitida esa bozor islohotlari ijtimoiy qatlamlar o'rtasida imkoniyatlarni kengaytirish bilan birga, yangi mehnat segmentlarini shakllantirdi. Ijtimoiy siyosatning yo'naltirilganligi, xususan, ta'lim va bandlik sohasidagi davlat dasturlari tufayli o'rta sinfn

² Muallif ishlanmasi O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida
<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>

mustahkamlanish jarayoni kuzatilmoqda. Shu bois, bozor iqtisodiyotining rivojlanishi mavjud tabaqalashuvni kuchaytirish o'rniga, ijtimoiy mobilitetni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini yaratmoqda.

2-rasmda keltirilgan Lorenz egri O'zbekiston bo'yicha daromadlarning o'rtacha taqsimlanishini aks ettiradi. Grafikda egri mutlaq tenglik chizig'idan past joylashgan bo'lsa-da, u tengsizlikning chuqurlashmagan, barqaror va ijtimoiy nazorat ostidagi shaklda saqlanayotganini ko'rsatadi. 2010–2016-yillar oralig'ida egri tenglik chizig'iga yaqinlashgan — bu ijtimoiy siyosatning samarali bo'lganidan dalolat beradi. 2020-yildan keyingi biroz og'ishlar pandemiya ta'siri bilan izohlanadi, biroq 2024-yilga kelib egri chiziqning barqarorlashuvi iqtisodiy tiklanish va ijtimoiy himoya mexanizmlarining kuchayganini ko'rsatadi. Lorenz egri jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi muvozanat saqlanib turganini ifodalaydi.

Ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi tafovutlar, asosan, mafkuraviy, madaniy va tarixiy omillar bilan chambarchas bog'liq. Zafirovski [10] ijtimoiy tizimlarning mafkuraviy asoslarini tahlil etar ekan, tarixan shakllangan axloqiy qadriyatlar ijtimoiy iyerarxiyani tartibga soluvchi mexanizm sifatida xizmat qilganini ta'kidlaydi. O'zbekiston jamiyatida esa milliy qadriyatlar va o'zaro hurmat madaniyati ijtimoiy muvozanatni saqlab turuvchi omil bo'lib, tenglik tamoyillarining kuchayishiga xizmat qilmoqda.



3-rasm. O'zbekiston bo'yicha Jini koeffitsiyenti dinamikasi (2010–2024)³

Madaniy kapital va ta'lim salohiyati zamonaviy tabaqalashuvning eng muhim omiliga aylangan. Yuqori ijtimoiy qatlamlar o'z mavqeyini bilim, texnologik savodxonlik va innovatsion faoliyat orqali mustahkamlab borayotgan bo'lsa, quyi qatlamlar uchun ham bu imkoniyatlar kengaymoqda. Davlatning raqamli

³ Muallif ishlanmasi O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida
<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>

savodxonlikni oshirish, inklyuziv ta'lim va ayollar bandligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlari ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy tengsizlik masalasi tobora murakkablashib, endilikda u faqat iqtisodiy tafovutlar bilan emas, balki gender, irq, hududiy tafovut va madaniy identifikatsiya bilan ham bog'liq shaklda namoyon bo'lmoqda. Kesishma tengsizlik (intersectionality) modeli bu holatni tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fasang va Aisenbrey [4] tadqiqotlariga ko'ra, gender, irq va ijtimoiy sinf o'zaro bir-birini mustahkamlovchi tizimlar sifatida harakat qiladi. Shu bois, ijtimoiy siyosatda bitta qatlam emas, balki barcha kesimlarda inklyuzivlikni ta'minlash dolzarb hisoblanadi.

3-rasmda O'zbekiston bo'yicha Jini koeffitsiyenti dinamikasi tasvirlangan. 2010-yilda 0,295 dan 2016-yilda 0,264 gacha pasayish — bu iqtisodiy o'sish davrida ijtimoiy tengsizlikning kamayganini anglatadi. 2020-yildan keyingi davrda ko'rsatkich 0,288 gacha ko'tarilgan bo'lsa-da, bu holat vaqtinchalik bo'lib, 2024-yilda 0,286 da barqarorlashgan. Bu jarayon ijtimoiy siyosatning izchil yuritilayotganini va pandemiyadan keyingi davrda tenglik tendensiyalarining tiklanayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, Jini koeffitsiyentining 0,26–0,29 oralig'ida saqlanishi O'zbekistonda iqtisodiy o'sish bilan birga ijtimoiy adolat tamoyillari ham ta'minlanayotganini bildiradi.

Texnologik taraqqiyot raqamli transformatsiya davrida ayollar va yoshlar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Ular masofaviy ta'lim, onlayn bandlik va tadbirkorlikda faol ishtirok etish orqali ijtimoiy-iqtisodiy faollikni kuchaytirmoqda. Rogerson [5] ta'kidlaganidek, raqamli savodxonlik darajasi va texnologik kirish imkoniyatlari ijtimoiy tenglikning asosiy shartiga aylanmoqda. Shu jihatdan, O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi nafaqat texnologik o'sish, balki ijtimoiy inklyuziya uchun ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Rogerson [5] ilgari surgan raqamli tengsizlik modeli O'zbekiston tajribasida shuni ko'rsatadiki, texnologik resurslardan foydalanish imkoniyatlari gender va hududiy jihatdan muvozanatlashib bormoqda. Ayollar va yoshlarning IT sohasidagi ulushi ortib, raqamli tafovutlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli infratuzilma barqaror rivojlanishning asosiy omiliga aylanib, davlatning ochiqlik, hisobdorlik va ishtirok tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu jarayon ijtimoiy barqarorlik, raqamli inklyuziya va ijtimoiy adolatni ta'minlash yo'lida muhim qadamlardan biridir.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy tabaqalashuvning mavjud shakllari raqamli transformatsiya, innovatsion boshqaruv va inklyuziv siyosatlar orqali asta-sekin yumshamoqda. Lorenz egri va Jini koeffitsiyenti orqali kuzatilgan ijtimoiy barqarorlik ijobiy tendensiyani ifodalaydi. Bu esa raqamli davrda teng imkoniyatlar, ijtimoiy adolat va innovatsion rivojlanish o'rtasidagi uyg'unlikni mustahkamlash uchun mustahkam asos yaratmoqda.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ijtimoiy tabaqalashuv jarayonlari iqtisodiy o'zgarishlar, raqamli transformatsiya va madaniy omillar ta'sirida yangi ko'rinish kasb etmoqda. Daromadlar taqsimoti nisbatan barqarorlashgan bo'lsa-da, raqamli imkoniyatlardan foydalanishdagi farqlar ijtimoiy tengsizlikning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Raqamli infratuzilma, texnologik savodxonlik va ma'lumotlarga kirish darajasi o'rtasidagi tafovutlar jamiyatda yangi ijtimoiy

pog'onalarni shakllantirib, ularning iqtisodiy harakatchanligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, raqamli transformatsiya o'z ichida ikki tomonlama ta'sirni mujassam etadi: bir tomondan, u ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlik sohalarida yangi imkoniyatlar yaratadi; boshqa tomondan esa, raqamli resurslardan teng foydalanish imkoniyati bo'lmaganda, mavjud ijtimoiy tafovutlarni chuqurlashtiradi. Shuning uchun ijtimoiy adolatni ta'minlash faqat iqtisodiy mexanizmlar orqali emas, balki raqamli siyosat, ochiq ma'lumot tizimlari va ijtimoiy innovatsiyalar yordamida amalga oshirilishi lozim.

Jini koeffitsiyenti va Lorenz egri tahlillari ijtimoiy tengsizlik darajasi so'nggi yillarda nisbatan pasayganini ko'rsatadi. Biroq bu o'zgarish sifat jihatidan barqaror bo'lishi uchun raqamli kirish imkoniyatlarining hududlar, jinslar va yosh guruhlari bo'yicha teng taqsimlanishi muhimdir. DAD dasturi, median indekslar va fazoviy monitoring natijalari asosida shunday xulosa chiqarish mumkin: ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda raqamli infratuzilma, ma'lumotlar siyosati va inson kapitali o'rtasidagi muvozanat hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tadqiqotdan olingan natijalar asosida quyidagi asosiy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ijtimoiy tengsizlikni o'lchash tizimini takomillashtirish. Mavjud monitoring tizimlariga raqamli tengsizlik, sog'liq va ta'limdagi kirish imkoniyatlari bo'yicha yangi indikatorlar qo'shilishi zarur. Bu indikatorlar DAD dasturi, Lorenz egri va median indeks asosida kompleks tahlilni ta'minlaydi.
2. Raqamli infratuzilmani hududiy teng rivojlantirish. Shahar va qishloq hududlari o'rtasidagi texnologik tafovutni kamaytirish, internet tarmog'iga keng kirish imkoniyatini yaratish ijtimoiy adolatni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.
3. Raqamli savodxonlikni oshirish. Ta'lim tizimida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish, ayniqsa ayollar, yoshlar va past daromadli qatlamlar uchun raqamli malaka dasturlarini kengaytirish lozim. Bu nafaqat texnologik imkoniyatlardan foydalanishni oshiradi, balki iqtisodiy harakatchanlikni ham kuchaytiradi.
4. Ochiq ma'lumot siyosatini rivojlantirish. Ma'lumotlar oqimi ustidan faqat markazlashgan nazoratni emas, balki fuqarolik ishtirokini ta'minlovchi ochiq tizimlarni yaratish ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi. Ochiq ma'lumot siyosati shaffoflikni oshiradi va ijtimoiy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.
5. Ijtimoiy innovatsiyalarni boshqaruv tizimlariga integratsiya qilish. PROPER dasturi yoki O'rta yer dengizi modeli kabi tajribalardan foydalanib, ijtimoiy siyosatni baholashda innovatsion monitoring yondashuvlarini qo'llash tavsiya etiladi. Bu ijtimoiy mas'uliyat, barqarorlik va fuqarolik ishtirokini kuchaytiradi.
6. Gender va yosh bo'yicha teng imkoniyat siyosatini mustahkamlash. Texnologik sohalarida ayollar va yoshlarning faol ishtirokini rag'batlantirish, ularni raqamli iqtisodiyotning to'laqonli subyektlariga aylantirish ijtimoiy tizimdagi muvozanatni ta'minlaydi.
7. Monitoring tizimlarini raqamli modellashtirish. Ma'lumotlarni tahlil qilish, vizualizatsiya va bashoratlash imkoniyatlariga ega yagona raqamli platforma ishlab chiqish orqali ijtimoiy tafovutlarni doimiy kuzatish va oldindan baholash mumkin bo'ladi.

Umuman olganda, raqamli transformatsiya sharoitida ijtimoiy tenglikni ta'minlash nafaqat iqtisodiy o'sish, balki barqaror ijtimoiy rivojlanishning asosiy

kafolati hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy adolatni raqamli texnologiyalar yordamida ta'minlash uchun muvozanatli siyosat, ochiq ma'lumotlar boshqaruvi va innovatsion monitoring tizimlari uyg'un ishlashi zarur. Ana shunda raqamli rivojlanish har bir fuqaro uchun haqiqiy imkoniyatga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xie, Y., Dong, H., Zhou, X., & Song, X. (2022). Trends in social mobility in postrevolution China. *Proceedings of the National Academy of Sciences*, 119(7), e2117471119. <https://doi.org/10.1073/pnas.2117471119>
2. Williams, L. D. A., & Woodson, T. S. (2019). Enhancing socio-technical governance: Targeting inequality in innovation through inclusivity mainstreaming. *Minerva*, 57(4), 453–477. <https://doi.org/10.1007/s11024-019-09375-4>
3. Zhang, Q. (2003). DAD: An innovative tool for income distribution analysis. *Journal of Economic Inequality*, 1, 281–284. <https://doi.org/10.1023/A:1026197229770>
4. Fasang, A. E., & Aisenbrey, S. (2021). Uncovering social stratification: Intersectional inequalities in work and family life courses by gender and race. *Social Forces*, 101(2), 575–605. <https://doi.org/10.1093/sf/soab151>
5. Rogerson, S. (2020). Digital inequalities: Contextualizing problems and solutions. *Journal of Information, Communication and Ethics in Society*, 18(3), 323–327. <https://doi.org/10.1108/JICES-05-2020-0064>
6. Judijanto, L., & Nastiar, M. F. (2025). Economic and social inequality in the digital era: A literature review of opportunities and challenges. *ResearchGate Preprint*. https://www.researchgate.net/publication/387939202_ECONOMIC_AND_SOCIAL_INEQUALITY_IN_THE_DIGITAL_ERA
7. Hadi, S. P., Ainuddin, I., Qomariah, A., Maulina, G., Wibisana, L., & Kuswara, B. H. (2025). The role of social innovation in dealing with social inequality: Case studies of PROPER in Indonesia. *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science*, 1537, 012047. <https://doi.org/10.1088/1755-1315/1537/1/012047>
8. Cinnamon, J. (2017). Data inequalities and why they matter for development. *Information, Communication & Society*, 20(3), 480–496. <https://doi.org/10.1080/1369118X.2016.1181196>
9. O'zbekiston O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>
10. Zafirovski, M. (2020). The "First Shall Remain the First": Social Stratification and Calvinism. *Interdisciplinary Journal of Research on Religion*, 16, 1–25. https://www.religjournal.com/articles/article_view.php?id=166